

**YER
NOK**

YER NOK



Namangan 2008

Yer nok (risola). Namangan, NamDU nashri, 2008yil,43bet
Nashrga tayyorlaganlar: Sh. Abdullayev, N.Umarova, M.Ikramova
Muharrir: T.Saypiyev
Taqrizchilar: A.Karimov
Kompyuterda sahifalovchi: Q. Karimov

Hurmatli talaba!

Namangan Davlat Universiteti kimyo-biologiya fakul'tetida bakalavr va magistraturada o'qiladigan fanlarda o'simliklardan olingan moddalar haqida kerakli ma'lumotlar internet yangiliklari bilan birgalikda beriladi. Mazkur risola orqali shu darslarda fikr yuritilgan moddalarni olish tahlil qilish va qo'llash haqida ma'lumotlar berilgan. Qo'lingizdagi risola nazariy olgan bilimingizni amalda sinayotganingizda, olgan natijalarni aks ettirishingizga moslangan. Bu risola hamma vaqt siz bilan bo'ladi degan umiddamiz. Kimyo kafedrası jamoasi.

Mazkur risola kimyo kafedrasining 26-avgust 2008 yil N1 bayonnamasiga asosan amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etildi.

Namangan- 2008 yil

So'z boshi

Yer nokning yem, sabzavot, sanoat va dorivor xususiyati uning kimyoviy tarkibiga bog'liqdir.

Topinamburda ko'p miqdorda 20% quruq modda, 80% fruktozaning polimer gomologi-inulin uchraydi. Inulin polisaxarid bo'lib, gidrolizlanganda diabetchilar uchun zararsiz fruktozaga aylanadi. Topinambur kletchatka tutadi va katta miqdorda ma'danli elementlarga ega, shu jumladan, temir, marganes, kal'siy, magniy, kaliy, natriy. Topinambur tuproqda faol kremniyni akkumulyasiya qiladi va hisoblanganda ildizpoyasidagi miqdori 8 % (quruq massa bo'yicha) to'g'ri keladi. Undagi temir, kremniy va rux miqdori kartoshka, sabzi va lavlagidan yuqoridir. Topinambur kartoshkalarida oqsillar, pektin, aminokislotalar, organik va yog' kislotalar aniqlangan. Pektin moddalari topinamburda 11% (quruq modda massasiga nisbatan aniqlangan). Vitamin B1, B2, C miqdori bo'yicha topinambur kartoshka, sabzi va lavlagiga qaraganda 3 marta ko'pdir. Boshqa mevalarga, sabzavotlarga qaraganda topinamburning farqi uning kartoshkasida oqsil (3,2 % gacha quruq massaga nisbatan) uchrashidir.

Ushbu o'simlik polivitaminli hisoblanadi. Yer ustki qismidagi vitamin yer ostki qismidagi - kartoshkasidagidan ko'p. Shuningdek, undagi vitamin C miqdori oddiy kartoshkadagidan 5 barobar bisyor. Topinambur kartoshkalarining vitamin tarkibi, mg % quruq massaga nisbatan quyidagicha:

C-98,1-108,1; B₁-1,2; B₂-4,0-7,9; B₃-2,4-8,8; B₅-0,2-0,9; B₆-0,12-0,22;
B₇-10,0-24,0.



Yer nok (topinamburning kimyoviy tarkibi va foydali xossalari)

Dorivor o'simliklardan biri topinambur, tugunakli kungaboqar (*Helianthus tuberosus* L.) hisoblanadi. U qoqio'tdoshlar Asteraceae oilasiga, *Helianthus* L. Turkumiga oid tur bo'lib, turkumning faqat bir turi kungaboqar-*Helianthus annuus* L. yaxshi o'rganilgan va keng tarqalgan. Topinambur ruscha nomi "zemlyanaya grusha", o'zbekchasiga "yer nok". Topinamburning vatani Shimoliy Amerika hisoblanadi. U 17 asrda Evropaga keltirilgan. Yaponiya, AQSH, Kanada, Gollandiya, Germaniya, Belgiya, Vengriya va boshqa mamlakatlarda tibbiyot xodimlari unga katta e'tibor qilmoqdalar. Topinambur nomi braziliyadagi hindular-tupinambadan chiqqandir. Italiya, Angliya, Gollandiya, Franziya kabi mamlakatlarda manzarali o'simlik sifatida ham ekiladi. Topinambur ko'p yillik o'simlik balandligi 1,5 metrga yaqin, ayrim vaqtda 4 metrgachadir. Topinamburning tugunaklari va yashil massasi tarkibida hayotiy zarur moddalar mavjud. Topinambur sortlari: "Kiyevskiy beliy", "Krasniy", "Veretenovidniy", "Patat", "Maykopskiy", "Beliy", "Skorospelka", "Naxodka", "Voljskiy 2", "Vadim", "Leningradskiy", "Severokavkazskiy", "Interes" (kartoshka hosildorligidan uch marta ortiq hosil beradi) va boshqalar. Semichka bilan topinambur chatishtirilib yangi o'simlik topisolnechnik kashf etilgan. Uning ildizpoyasi yumoloq, siliq sirtli, hosildorligi 400 z/gekrtardan, ko'k massasi 600z/gektardan

Masalan, yer nok tugunagida 19-30% inulin, 2-3% protein, 1-2,5% oqsil, 0,5-1% yog', 1-1,5% kletchatka, AEM (Azot tutmagan ekstraktiv moddalar.) 15-25%, kul 1-2,5% ni tashkil etadi. Yashil massasida esa 26-29% quruq moddalar,

2,5-3,5% protein, 2,5-3% oqsil, 0,32-0,58% yog', kletchatka 3,5-5,1%, AEM(Azot tutmagan ekstraktiv moddalar.)-96,3-21,6%, kul-2,1-2,7%ni tashkil etadi. 100kg ozuqa massasida 26,6-30,6 ozuqa birligi mavjud bo'lib, bu silos bo'ladigan makkajuxori va kungaboqarning sut shiraga to'lish fazasidagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, topinambur chorva mollari uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Bizda mavjud bo'lgan topinambur navlari: Interes, Vadim, Belayala hosildor. Topinambur oziq-ovqat, yem xashak va dorivor ekin sifatida keng tarqalmoqda. O'zbekistonda topinambur fermer xo'jaliklarda, tomorqalarda ko'plab o'stirilmoqda. Ammo uning biologiyasi, agrotexnikasini bilmaganligi tufayli aksariyat topinambur ekan fermerlar kam hosil olishmoqda yoki undan foydalanishni bilishmayapti. Topinambur (yer nok) sug'oriladigan yerlarda bir gektardan, agrotexnika qoidalariga rioya qilib o'stirilganda, navlar to'g'ri tanlanganda 800-900 zentner silosbop ko'k massa 250-300 zentner qimmatbaho tugunak hosilini beradi. Uning oziqabop silos tarkibida 24 oziqa birligi, 100kg tugunagida 30 oziqa birligi saqlanadi. Uning tugunaklarida shifobaxsh inulin mavjudligi ahamiyatlidir. Yer nok ko'p yillik o'simlik bir marta ekilgan maydondan 10-12 yil tugunak va yashil massa hosilini olish mumkin. Kuzda terilgan tuginaklar yomon saqlanadi, shu sababli kerak bo'lganda qazib olinsa bo'ladi. Yer ostida 40 gradus sovuqda ham saqlanadi. Yengil muzlash bo'lganda ustki qismi poyalari kesiladi lekin bir qismi qolishi kerak chunki u tuginakni ozuqalaydi. Bahorda kovlab olingan tuginaklarda vitaminlar saqlangan bo'ladi. Topinambur qandli diabet pankreatit, ichaklarni yallig'lanishi va gipertonik kassaliklarga davodir. Odam organizmiga tushgan topinambur nitratlar shlaki, toshlarni, tuzlarni eritib meyorga tushiradi. Bu sabzavotda C va B vitamini temir va fosfor moddasi bor. Yegulik tomonidan topinambur kartoshkadan qolishmaydi. Yerga topinambur ekish uchun yerni bahorda tayyorlanadi xuddi kartoshkaga o'xshab, u ildiz tugunagidan ko'payadi. 12-15 sm masofada ekiladi, 8-10 sm chiqurlikda o'stiriladi. Qatorlar orasi

maydalanadi, panshaxalanadi ikki-uch marta, namu katta yerlarda chopiq qilinadi. Kerakmas yoki ko'p qismi olinadi qayta ekish orqali qatorlar tartibi saqlanadi, panshaxalanadi, ozuqa beriladi. Yer nok zararkunandalari medvedka, provolochniklar, har xil sovkalar gusenizalari –juda kam zarar beradi va kam uchraydi. Bu o'simlik turini asrab-avaylash kerak. Shoxlari o'sganidan so'ng 40sm uzunlikda yen shoxlari olib tashlanadi. Eng tagidagi baquvvatlari qoldiriladi. 1 metr bo'lganidan so'ng yerga o'g'it beriladi, suv qo'yiladi va 1-3 kundan so'ng o'simlikni chopish kerak. Agar yoz quruq kelsa har-20 kunda suv quyiladi. Topinamburni qishda eksa ham bo'ladi, sentyabr, oktyabr oylarida yer muzlagunicha. Shu yordamida tugunagi ertangi hosil berishadi. Yer nok kartoshkadan keyin yig'ishtiriladi. Ildizli tugunagini chopib olish kerak va ishlov beriladi. Yashil massasini maydalab quritilgan holda davolashga ishlatiladi: xom xolda, hamda pishirilgan holda ishlatiladi. Qishda mevalarni o'rada saqlanadi. Yer nok o'simligining shifobaxsh xususiyati kuchli undan dori-darmonlar ishlab chiqarilgan. Yer nok o'simligidan hindularni irokez qabilasi to'yimli ovqat o'rnida ko'rgan va undan ko'p foydalanilgan. Yernokni Vavilov o'simligi deyiladi, chunki uni shofobaxsh xususiyatini ochib bergan. Vavilov yernok ustida ko'p ishlarni amalga oshirilgan va u haqida quidagi malumotlar bor. Kungaboqarning alohida turiga kiruvchi, pistasiz, lekin hosili yovvoyi kartoshkasi bor o'simlikni Vavilov Shimoliy Amerikadan topgan edi. Ushbu o'simlikdan irokez urug'i foydalanganlar, ular jismonan baquvvat, haqiqiy jangchilar bo'lishgan. Ularning kam kasal bo'lishgan. Uzoq yashagan. Irokez urug'ining xotinlari ko'p bolalar tug'ib, intim xayotlarni tushungan holda yashab ushbu o'simliklardan ko'p istemol qilishgan. Bu o'simlik kartoshkaga o'xshab ularni ochlikdan saqlagan, uni yetishtirish oson, hosildorligi kartoshkaga qaraganda bir necha bor yuqori bo'lgan. Bir marta ekilgan besh yil davomida hosil beraveradi. Yer tanlamaydi, chopiq qilinmaydi. Bir tubidan bir paqir hosilni yig'iladi. Lekin po'sti yupqaligi sababli u tez chiriydi, muzxonada saqlash kerak. Yoki hosil yig'ilgandan so'ng uni quruq konsentratga ayilantiriladi

u ikki yil davomida o'z xususiyatlarini yo'qotmay saqlaydi. u nafaqat ajoyib oziq-ovqat, balki davolavchi substanziyadir. Unda rekord miqdorda organizm yengil hazm qiladigan organik kremniy, osmiy, magniy va ko'plab miqdorda mikroelementlar, aminokislotalar va vitaminlar borligi aniqlangan. Konzentrat istemol qilinganda qonning T-limfositlari kattalashgan, u esa organizmda imunitetni ta'minlaydi., insonda hayotga havas uyg'otadi.

Tomirlarni mustahkamlaydi, uni elastikligini oshiradi, muntazam qabul qilinganda organizmning qon sistemasi yigirma yilga yasharadi. Yernok oshqozon-ichak kassaliklari, siydik yo'llarini, yuqori nafas yo'llarini normallashtiradi.[1]

Topinamburning ishlab-chiqarishda ahamiyati uning 95% fruktozadan iborat ekanligi, oziq-ovqat, diyetik oziqlantirishda qo'llaniladi. Topinambur xoka, sirop, pyure, pasta shaklida unli va konditer maxsulotlar biologik ahamiyatini oshirishdir. Eng muhim uni erdan yig'ish shart emas, u qishlashi mumkin. Poyalari mollarga emdir. Topinambur yilda 131,2t/ga, ildizpoyasi 160t/ga bo'lishi ma'lum.

Topinambur yot o'simliklar osoka, pirey va boshqalarni erdan siqib chiqaradi. Ildizpoyasidan 100kg dan 9-10 kg fruktoza olinadi, shakar lavlagisida esa 4-6 kg chiqadi, spirt olinganda 7-8 l/z, bu shakar lavlagisi, kartoshka, bug'doyga qaraganda 1,5-3,5 marta ko'pdir. Ko'k massasi 1000 z/g, ildizpoyasi 400 z/ga. 1 z ko'k massasi 25-30 yem birl. Ko'k samoni topinamburda (82%), qizil kleverda (70%), vikada (66%), timopfeyevkada (64%), lyuzernada (57%) [2]

Yer nokning yem, sabzavot, sanoat va dorivor xususiyati uning kimyoviy tarkibiga bog'liqdir

(1 jadval)

Tekshiruv ob'ekti	Quruq Moddalar	Protein	Yog'	Kletchatka	AEM	Kul
Ko'k massa	18,0	10,0	1,8	18,1	55,0	14,3

Tomir	19,2	11,4	1,0	4,2	78,0	5,8
-------	------	------	-----	-----	------	-----

Izoh: proteinlar, yog'lar, kletchatka, AEM(BEV), kul quruq absolyut moddaga nisbatan % miqdorda berilgan. AEM-BEV (Azot tutmagan ekstraktiv moddalar.)

Topinambur katta miqdorda quruq moddalar (20% gacha), ular orasida 80% gacha fruktozaning polimer gomologi - inulin uchraydi. Inulin polisaxarid bo'lib, gidrolizlanganda diabetichilarga zararsiz fruktozaga aylanadi. Topinambur kletchatka tutadi va katta miqdorda mineral elementlarga ega shu jumladan (mg % quruq massaga): temir - 12; marganes - 45; kalsiy - 40; magniy - 30; kaliy - 200; natriy - 17,2, kremniy 8, rux 500, fosfor 500 mg % gacha uchraydi. Topinambur tuproqdan faol kremniyni akkumulyasiya qiladi va ildizpoyasida uning miqdori 8% ga quruq massa bo'yicha hisoblanganda to'g'ri keladi. Temir, kremniy va rux miqdori bo'yicha u kartoshka, sabzi va lavlagidan yuqoridir. Topinambur kartoshkalarida oqsillar, pektin, aminokislotalar, organik va yog' kislotlar aniqlangan. Pektin moddalari topinamburda 11% quruq modda massasiga nisbatan aniqlangan. Vitamin V₁, V₂, C miqdori buyicha topinambur kartoshka, sabzi va lavlagiga qaraganda 3 marta ko'pdir. Boshqa oziq ovqat mevalariga sabzavotlarga qaraganda topinamburning farqi uning kartoshkasida oqsil (3,2% gacha quruq massaga nisbatan) uchrashidir, tarkibida 16 aminokislotalar, ulardan 8 tasi almashib bo'lmaydigandir va ular kishi organizmida sintez bo'lmaydi: arginin, valin, gistidin, izoleysin, leysin, lizin, metionin, triptofan, fenilalaninlardir.

Topinambur dorivor xususiyati bu biologik faol moddalardandir.

Boshqa sabzavotlardan topinamburning farqi undagi betakror uglevod kompleksidir. Asosida fruktoza va uning polimerlari: fruktooligosaxaridlar va inulin kiradi.



Inulin - tabiatda yagona tabiiy polisaxarid, asosan 95% fruktozadan iborat.

Qorinda inulin to'la xazm bo'lmaydi, bir qismi qorin sharbati kislotali muhitida kichik fruktoza zanjirlariga va ayrim fruktoza molekulasiga parchalanadi, ular qon tomirlariga o'tadi. Inulin kishi organizmiga tushishidan boshlab, organizmdan chiqquniga qadar foydali xususiyatlarini namoyon qiladi. Qorin-ichak traktiga tushishi bilan inulin xlorid kislotasi va fermentlar ta'sirida ayrim fruktoza molekulasiga yoki kichik fruktoza zanjirlariga parchalanadi, ular esa qon oqimi ichiga o'tadi. Qolgan parchalanmagan inulin organizmdan chiqib ketayotganda unga kerak bo'lmagan narsalar masalan og'ir metallar, radionuklidlar, xolesterin kristallari, to'yingan yog'lar, har xil toksik kimyoviy moddalar qaysiki ular organizmga ovqat bilan kirgan yoki kasallik keltiradigan ichakda yashovchilari faoliyatidan hosil bo'lgan bo'lishi mumkin ularni u bog'lanib olib chiqib ketadi. Inulin ichakning siqilib kengayishini rag'batlantiradi va shu hisobida undagi shlak, qayta ishlanilmagan ovqatlar va zaharli moddalarni chiqib ketishiga sababchi bo'ladi. Antitoksik effekt inulinda topinamburda uchragan kletchatka hisobida ham sodir bo'ladi. Ichakga parchalangan kichik fruktoza zanjirlari hamda qondagilari antitoksik tozalash funksiyasini bajarib borib, yot va zaxarli organizmda hosil bo'lgan yoki tashqaridan kirgan kimyoviy moddalar bilan bog'lanib zaxarsizlantiradi. Inulin ichakdagi disbakteriozda kerakli moddalarni ko'payishiga muhit bo'la oladi. Shu vaqtning ichida ko'pgina mineral tuzlar, ayniqsa kalsiy adsorbsiyalanishi oshadi, qonda xolesterin miqdori kamayadi, kanserogen va chiriydigan moddalar ham yo'qotila boshlanadi.

Inulin un shaklida topinamburdan olinib ko'pgina AQSH va Yevropadagi aralashtirilgan probiotiklar sifatida kasalliklarning oldini olishda qo'llanilmoqda. Inulinning oziq-ovqatga qo'shimcha sifatida qo'llaganda u vitaminlar sinteziga foydali, immun qo'rriqlash sistemasi ishini yaxshilaydi. Hayvondagi tajribalarda shishga qarshi faolligi inulinda aniqlangan.

Fruktooligosaxaridlar-glyukoza va fruktozadan iborat kichik zanjirli aralashmadir. Fruktooligosaxaridlar ko'pchilik shtam bifidobakteriy yordamida neytrallanadi, bunda ayrim laktobakteriyalarning foydasi mavjuddir. Fruktooligosaxaridlardan foydalanganda ichakda mikroob statusi normallasadi va ichakdan kalsiy va magniy ionlarining absorbsiyasi ko'payadi.

Fruktooligosaxarid kichik kaloriylikga ega shu sababli semiz va shakar diabeti kasallariga taklif etilgan. Sotuvdagi fruktooligosaxarid preparatlari tri-, tetra- va pentasaxaridlar aralashmasi glyukoza va fruktozalardan iborat. Yaponiyada ular asosan ishlatiladi. Masalan 1997 yilda Yaponiyada fruktooligosaxaridlar 1 milliard yen miqdorida chiqarilgan, 75% mamlakatning o'zida, 25% - eksport qilingan.

Hozirgi vaqtda fruktooligosaxaridlar 500 dan ortiq an'anaviy yapon maxsulotlarida (bolalar ovqati, non, kofe ichimliklari va boshqalarda) qo'shilgan. Olimlar fikricha mana shu Yaponiyada o'lim ozligi va ichak rak kasaligining kamligiga sababchidir.

Fruktoza topinamburning asosiy tarkibiy qismidir. Uning miqdori terish vaqtiga qarab o'zgarishi mumkin, yana saqlash vaqti boshqa faktorlarga bog'liqdir. Tomir va kartoshkadagi biokimyoviy jarayonlar natijasida u inulindan hosil bo'ladi. Fruktoza - dietik shakar, u glyukoza qatnashgan jarayonlarda qatnashishi mumkin, va insulin yetishmayotgan vaqtida o'rnini bosishi mumkin.

Mineral moddalar organizmda har xil funksiyalarni bajaradi: tayanch skelet to'qimalarni qurishda qatnashadi (Ca, P, Mg, Si), qon xujayralarida kerakli osmotik bosim saqlashda unda almashinish jarayonida qo'llaniladi (Na, K), ichakdagi xazm qiluvchi soklar hosil bo'lishga yordam beradi (C₁), gormonlarni (J, Zn, Cu, Se, Mn), kislorodni organizmda tashishda (Fe, Cu), ayrim xayotga kerakli vitamin va fermentlar faoliyatiga, ular bo'lmasa xazm bo'lish qiyinlashadi (Co, Si).

Yer nok tarkibida mikro- va makroelementlar tarkibi to'g'ri nisbatdadir - katta miqdorda temir saqlaydi (12 mg %gacha), kremniy (8 mg %gacha), rux (500 mg %gacha), magniy (30 mg %gacha), kaliy (200 mg %gacha), marganes (45 mg %gacha), fosfor (500 mg %gacha), kalsiy (40 %gacha).

Kremniy. Topinambur faol tuproqdan kremniyni oladi va "kremnefil" o'simliklardan hisoblanadi. Kremniy quruq modda hisobida topinamburda 8 % ga yaqin to'planadi. Kremniy hozirgi zamon qarashlariga binoan hayvon va kishi organizmining normal o'sishi va rivojlanishiga kerakli elementdir. Fikrlar bo'yicha tirik to'qimalar uchun "silikotropizm" xolatdir. Kremniy gipofizda, miya pustlog'i qattiq qismida va bosh miya oq moddasida, ko'z qarachig'ida va qalqon osti bezida, buyrak to'qimalarida, yurakda va boshqa organlarda uchraydi. Kremniy qon tomirlari elastik qismida uchraydi ,ateroskleroz vaqtida, kremniy miqdori kamayganda biriktiruvchi to'qimalarda arteriya devorlari elastikligi tushadi va o'tkazuvchanligi oshadi. Biofil kremniyga talab juda kattadir. Biofil kremniy- bu o'simlik (organik) kremniy, qaysiki u fosfolipidlar, oqsillar, pektinlar bilan kimyoviy bog'langan, ular organizm tomonidan birinchi xazm bo'ladi. Kremniyni yutuvchi va odam ekologiyasini asosiy buzuvchi bu gelmintlardir .

Onkologiyadagi taxlillar ko'rsatishicha , kremniy miqdori ozligini va parazitlar (glist gijjalari 42%yuqori, grib kuzikorinlar 35 - 50%) ko'pligini ko'rsatdi. Agar kremniy, topinambur qo'llanilsa antigelmint terapiya yaxshilanadi hamda lyamblioz va opistorxoz vaqtida parazitlarning to'la o'lishiga olib keladi. Kremniyni polimikroelement qo'shimchalar orasida ko'pam ko'rmaymiz. Lekin dunyo yetakchi olimlar fikri bu element absolyut almashinishi mumkin emasdir. U biriktiruvchi to'qimalarni oqsil kollagenning hosil bo'lishida kerakdir. U soch, tirnoq va teri oziqlanishi va sog'lig'i uchun kerak, kalsiyni suyaklar tomonidan yutishiga yordam beradi. Suyak to'qimasining qattiqligini oldini olish uchun har kuni kremniydan 2 mg, ayallarga esa 3 dan 6 mg qabul qilib turish kerak.

1999 yilda Rospatent quyidagi yangilikni xisobga oldi "kompleks kishini sog'lamlashtirish uchun kremniy preparati".

Kremniy - organizmning struktur elementidir, u modda almashinishini tartiblashtiradi, hamda mikro-va makroelementlarni yutilishiga yordam beradi. Agar uning miqdori kritik nuqtadan pasaysa odam xronik og'ir kasal bo'ladi, miya tomonidan o'sish tartibi, xayot jarayonini nazorat qila olmaydi va kishi organizmida xayot yo'qola boshlaydi. Agar kremniy organizmda yetishmasa davriy jadvaldagi qariyb 70 elementi yutilmasdan qoladi.

Erkin radikallar –yuqori faol oxirigacha oksidlanmagan maxsulotlardir, ular organizmdagi almashinish jarayonida hosil bo'ladi. Ularga bitta elektron yetishmaydi, o'shani axtarib energiya manbai bo'lgan xujayra - mitoxondriyaga kirib oladi, undan yetishmaydigan elektronni olmoqchi bo'ladi. Xujayrada energiya olish jarayoni buziladi va u kuyib ketadi. Kam miqdorda erkin radikallar juda ham kerak, ular kasal xujayralarni topadi va ularni yo'qotadi. Xuddi shunday ular bakteriya va viruslarni yo'qotadi. Lekin erkin radikal juda ko'p bo'lsa, ular sog'lom organizm xujum qilishi mumkin erkin radikallar miqdorini (stressi, ultrabinafsha nurlanish, chekish) ko'paytirishi mumkin ya'ni "erkin radikal portlash" xodisasi sodir bo'ladi. Agar erkin radikallar nazoratdan chiqsa ko'pschilik kasalliklar boshlanadi degan fikr ma'lumdir. Bu xujumga o'tgan erkin radikallarga qarshi organizmda antioksidant himoya tizimi mavjud ularga - vitamin C, E, beta-karotin, har xil fermentlar, ayrim kislotalar va selen kiradi.

Selen – kishi hayotiga zarur 19 ta elementning biridir. U glyutationperoksidaza tarkibida bo'ladi, bu ferment, xayvon va odamning hamma xujayralari va biologik suyuqliklar ichida uchraydi va eng og'ir radikallar bilan ham kurasha oladi.

Selen taqchilligi ko'pgina og'ir kasalliklar oldini olish barerini buzadi bu: rak, yurak-tomir kasalliklaridir, SPID, psoriaz, oldindan qarish.

Ovqatlanish instituti RAMN ko'rsatishicha Rossiya aholisining 80% selen miqdori oz ekan. Agar selen taqchiligi me'yoriylashtirilsa onkologiya hamda yurak- qon tomir xastalıkları kamayar, ekologiyaning buzilishi oqibatida kishi organizmiga ko'rsatiladigan nojo'ya ta'sirlarning oldi olinar ekan. Asosan selen organizmga 90% ovqat bilan, 10% suv orqali kiradi. Ovqat shakliga qarab 12 barmoq ichak va ichakning ayrim joylarida yutilishi sodir bo'ladi. Topinamburda selen yo'q, lekin Irkutsk olimlari ikki gurux kasallarga ya'ni selen oz bo'lgan bolalarga topinambur va ikkinchisiga selen tarkibli dorilar berdilar. Tajribalar oxirida selen miqdori topinambur qabul qilganlarda ko'p ekan. Topinambur selenni ov'qatdan xazm qilishda foydalidir. Demak, topinambur har xil yoshli odamlar, ovqat sifatida tibbiyot ko'rsatgichlari ekologik ta'siri organizmda qancha erkin radikal bo'lishiga qaramay, faqat kerakli miqdorda selenni hazm qilishga yordam berar ekan. Topinambur kartoshkasi vitamin tarkibi o'simlik polivitaminli hisoblanadi. Yer ustki qismida, kartoshka qismidan vitamin ko'p. Lekin topinamburda oddiy kartoshkaga qaraganda vitamin C miqdori 5 marta ko'pdir.

Topinambur kartoshkalarining vitamin tarkibi, mg % quruq massaga nisbatan:

C-98,1-108,1; B₁-1,2; B₂-4,0 -7,9; B₃- 2,4- 8,8; B₅-0,2-0,9;

B₆-0,12-0,22; B₇-10,0- 24,0.

Organik polioksikislotalar miqdori quruq massaga nisbatan - 6 - 8%. Ularga limon, olma, malon, qahrabo, fumar kislotalar kiradi. Organik kislotalar almashinish jarayonida faol qatnashadi, so'lak bezlarining sekretor faolligini oshiradi, o't va pankreatik suyuqligini ajralishini kuchaytiradi, hazm bo'lishini yaxshilaydi, kerakmas tuzlarni eritadi (siydik kislota tuzlari), bakterisid xususiyatga ega, kislota-ishqorli muvozanatga yaxshi ta'sir qiladi, ichak-qorin trakti funksiyalariga va boshqa organizm sistemasiga yaxshi ta'siri sababli ichakosti bez sekresiyalarini harakatlantirishi va ichak motor funksiyasini yuqorilashtiradi. Organik kislotalar ovqat hazm qilish jarayoniga ta'sir qiladi,

chunki ularda kislotalar ozdir. Vitamin C bilan kompleksda antioksidant xususiyatga ega.

Pektin moddalari-yuqori molekulyar uglevodlardir (polisaxaridlar), ulardan xujayra membranasi va xujayralar orasidagi moddalar asosini tashkil etadi. Pektinlar yutish, quyultirish va jelatinalash xususiyatiga ega. topinamburda quruq massasining 11% miqdorida uchraydi. Pektin 200 yil oldin birinchi marta topinambur kartoshkasidan ajratilgan. U o'zining ustki qavatida zaxarli moddalarni, xolesterinni, trigliseridlarni yutib olib organizmdan chiqaradi, ular esa ateroskleroz va o't tosh kasalliklari sababchilaridir. Tekshirishlar pektinlar yurak arteriyalarida ham aterosklerotik to'plamlarini kamaytirar ekan. Pektinning yuqori og'ir metallar bilan kompleks birikmalar hosil qilishiga asoslanib kasbiy shu bilan bog'liq odamlardan og'ir metall birikmalar, pestisidlar, radioaktiv moddalar ajratib chiqarishida foydalanilgan. 1998 yilda Traxtenberg tomonidan "radioaktiv nurlanishda pektin moddalarini ishlatish" instruksiyasini tasdiqlatgan bunda katta odamlarga 3g , yosh bolaga 1g kunda qabul qilish kerak ekan.

Ukrainada o'tkazilgan tajribalarda radionuklidlar miqdori 40-50% kamaygan.

Kletchatka (xujayra). Odam ovqat yeganda xazm qilinmagan bir qismi organizmdan chiqib ketadi. Shunga asoslanib faqat tozalangan ovqat yeyish kerak degan fikr paydo bo'lgan, mana shunday rafinirilgan ovqat yegan kishilarda keyinchalik gastrit, kolit, pankriotit, xolestsistid, o'smala paydo bo'lgan.Olimlar fikricha kletchatka organizmda bo'lsa qalin ichak raki, divertikulez, ich qotish, semirish,tomir trombozi kamayar ekan. Kletchatka yaxshi "supurgi" ga o'xshab ichakdagi kichik tolalarni tozalaydi, bir-biriga yopishishga qo'ymaydi. Ichakdagi katta miqdordagi suyuqlikni yutib oladi va ichakni tozalaydi, ya'ni kalit, gastrit va ich qotishni oldini oladi.Shishgan kletchatka ichak ichidan o'ta turib zaxarli kimyoviy moddalarni, mutagenlarni, kanserogenlarni, hamda shish hosil qilishga sababchi narsalarni o'zi bilan olib chiqadi. U bundan tashqari qonda shakar miqdorini va xolesterinni kamaytiradi.

Kletchatka kam ovqat to'yimligi ozdir, shu sababli odamlar ko'proq yeyaboshlaydilar. Yana semirish, gipertoniya, diabet kasali ko'payishi xavfi oshmoqda. Kletchatka donli ma'xsulotlar, mevalarda mavjud lekin ularda uglevod ham ko'pdir, shu sababli topinambur kletchatkasi qo'llash kerak.

Oqsillar. Topinamburda quruq modda hisobida 3,2% miqdorga ega, va u 16 aminokislotadan iborat, undan 8 tasi almashinmaydigan va odam organizmida sintez qilinmaydi. Tajribalar kursatganki topinambur oqsilli to'laqonli emas. Oqsil tarkibida leysin, treonin, triptofan, fenilalanin, tirozin hisobida ko'pdir, lekin lizin miqdori limitlangan. Boshqa ishlar ko'rsatmoqdaki topinambur oqsili vilochkoviy-panshaxa (timus) bezi oqsiliga o'xshaydi va shu oqsillar xossasiga egadir.

Topinambur kimyoviy xossasi bo'yicha oziq-ovqat hazm qilishiga yaxshi foyda beradi. Birinchidan inulin faol sorbent sifatida organizmda toksin va ballast moddalarni chiqarib yuboradi. Inulin ichak-qorin traktida (motorika va perestaltika) harakatni rivojlantiradi. Inulin ta'sirida jigar va o't pufagidan o't 12 barmoqli ichakka o'tishini yaxshilaydi va ichakni tozalashga yordam beradi. Topinambur organik polioksikislotalari organizmida hosil bo'lgan, erkin radikal va kam oksidlangan maxsulotlarini zararsizlantiradi. Shunda ichakda ishqorli holat paydo bo'lib oziq-ovqat normal fermentativ parchalanadi. Topinambur ichak organlarini infeksiya viruslarga ham bakteriyalarga qarshi mustahkamligini oshiradi, hamda har xil parazitlar joylashishiga (lyamliya, opistorxis va x.z.o.) yo'l qo'ymaydi. Optimal yashash sharoitini ichak mikroflorasiga bifidum- va koli-bakteriyasi tashkil etadi. Shu sababli disbakteriozda topinambur foydasi ma'lum bo'ladi. Mana shu ta'sirlar natijasida topinambur bilan davolaganda opistorxis, lyambilozni davolash yaxshi boradi va farmpreparatlardan foydalanmasdan ham parazitlarni yo'qotish mumkin. Antisklerotik xususiyati natijasida u qon tomirlarini devorlarini yaxshilaydi. Qonning reologik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, ichak-qorin traktidagi hamma bo'lim shilimshiq qavatida qon almashinishini kuchaytiradi, hamda qorin osti

bezi qon ta'minlashni yaxshilaydi. U esa ovqat hazm qiladigan ferment va garmonlarni katta miqdorda ajrata boshlaydi. Shu tomir effektlari natijasida kasallik natijasida buzilgan to'qimalarni regenerasiyalaydi, qayta tiriltiradi, shu sababli u xronik shakldagi kasallar gastrit, duodenit, enterit, kolit, pankreatit va boshqalarda, oshqozon yarasi kasalliklarida, 12 barmoqli ichak kasalliklarida foydalidir. Klinik sinovlar ko'rsatdiki ko'pgina og'riq sindromi, qayt qilish, izjoga, og'izdagi achchiqlik, qorin shishi, ich ketishi, (ich yurishi yoki qotishi) agar farmpreparatlar va topinambur bilan birgalikda foydalanilsa 5-7 kun oldin standart davolagandan oldin yaxshilanadi. Agar murakkablashgan kasallik holatida ovqatga topinambur qo'llanilsa kasallik tuzalishga yoki mustahkam remissiyaga sababchi bo'ladi. Topinambur-ovqat xazm bo'lish organlarida xronik kasalliklar tezlashadigan yilning kuz va bahorida stress holatida yaxshi doridir, hamda boshqa organlar kasalligida, virus infeksiyalarida foydalidir, shu vaqtda u oshqozon yarasi kasalliklari, pankreatit yoki gastritni oldini oladi. Olimlar ko'rsatishicha funksional qorin patologiyasi bolalarda topinambur ovqat rasioniga kiritilganda, u faqatgina motor-evakuasiya xossasini oshirmay, antioksidant va immun sistemasiga ham yordam beradi. Solishtirishlar ko'rsatdiki katta yoshlilar va yosh bolalarda qorin raki va ichak organlarini tinmasdan og'rishi orasida bog'liqlik bor ekan, shu sababli topinamburni ekologik yomon regionlarda qo'llash yaxshi ta'sirga ega bo'lar ekan.

Jigar bakteriyalarga qarshi organizmdagi qo'riqlashning ikkinchi qismidir. Jigar-bizning gavidamizning kimyoviy laboratoriyasidir, yoqilg'i va zahira omborimizdir, bu zaxarlarni zaxarsizlantiradi, 500ga yaqin har xil funksiyaga ega. Jigarsiz odam bir necha soat yashashi mumkin.

Odam faqat yegan maxsulotning ma'lum qismini hazm qiladi, demak ko'p ovqat ham jigarni qiynaydi. Topinambur o'zining ajoyib xususiyatlari orqali jigarni rasional faoliyatiga yordam beradi.

Glyukozani utilizasiya qilib glikogenni sintez qiladi, ya'ni yuqori energetik almashinishni paydo qiladi, u esa o'z navbatida oqsil, xolesterin, o't kislotpalari va boshqalarni sintez qilishga undaydi.

Inulin ichak-qorindagi jarayonlarni yaxshilaydi, yot narsalarni adsorbsiyalab jigarga yordam beradi, u esa o'zining organizm uchun kerakli faoliyatini to'g'ri bajaradi. Topinambur jigar kasalliklariga qarshi emas, balki o'tkir va xronik gepatitda (virus, alkogol, toksik, antiimmun xolatda) ham foydalidir, yog'larning serroz qayta paydo bo'lishini oldini oladi.

Shakar diabeti hozirgi kunda insulinga bog'liq (1-tip) va insulinga bog'liq bo'lmagan (2-tip) turlarga bo'linadi. 1-tipdagi shakar diabetida topinambur qabul qilib borilsa, qondagi shakar miqdori tushadi. Bu effekt sababi quyidagichadir:

1. Xlorid kislota bilan parchalanmagan inulin molekulasi qorinda ovqatdan keyingi katta miqdordagi oziqa glyukozani adsorblaydi.
2. Kletchatka ham glyukozani sorbsiyalaydi va uning qonga singishiga qo'ymaydi.
3. Glyukoneogenez kamayadi (jigarda glyukoza hosil bo'lishi).
4. Glyukozaning rezerv yo'l orqali yonishini stimulirlaydi (glikoliz), bunda insulin foydasi uncha katta emas.
5. Stabil glyukoza miqdorining qonda kamayishi oshqozon bezi tomonidan o'zi insulin chiqarishiga sababchi bo'ladi.
6. Insulin sinteziga kremniy, rux, marganes, kaliylar yordam beradi.
7. Muhimi fruktozaning insulinsiz organlarning hamma xujayralarga kira olishi va almashinish jarayonlarida glyukozaning o'rnini bosa olishidir. Bunda xujayralardagi katta miqdordagi energetik ochlik kamayadi. Bundan tashqari inulinning qisqa moleklalari xujayra devorlariga yopishib, xujayradan glyukozaning o'zini o'tkazadi lekin oz miqdorda. Mana shular hisobida qonda shakar miqdori ozayadi va bu kun davomida tez o'zgarmaydi. Shu orqali insulinga bog'liq bo'lgan shakar diabeti kasallari davolanadi.

8. Inulin, kletchatka va pektin organizmada ayrim jismlarni, asetonni bog'lab oladi va chiqarib yuboradi, almashinish jarayonidagi buzilgan moddalarni ham chiqarib yuboradi, asedoz rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

9. Antioksidant va antitoksik funksiyalarni kichik fruktoza fragmentlari va organik polioksikislotalar bajaradi.

10. Tomirlar xolati yaxshilanadi va og'irlashish xususiyati qaytadi.

11. Qonning immunologik ko'rsatkichlari yaxshilanadi va infeksiyon kasalliklarga moyillik yo'qoladi.

2 tipdagi shakar diabetida topinambur qabul qilinganda:

1. Qondagi shakar miqdori kamayadi yoki normalashadi. Bunga sabab:

a) Qorin-ichak qismidan glyukozaning qonga kamroq o'tishi hisobida;

b) glyukozani faolroq ishlatish hisobida;

v) xujayraga nisbatan insulin sezgirliги oshirish orqali (inulinorezistentlikning kamayishi hisobida);

g) o'zining insulin ishlab chiqarishi kuchayishidan

d) jigarda glikogen hosil bo'lishining ko'payishidan.

2. Yog' almashinishi yaxshilanadi: xolesterin va trigliseridlar qon tarkibida miqdori kamayadi, bu esa ateroskleroz va u bilan bog'liq o'zgarishlar oldini oladi

3. Semizlikga moyil kishilarda massa og'irligi kamayadi.

4. Jigar va ichak-qorin traktidagi organlar xolati yaxshilanadi.

5. Buyrak usti bezi pustlog'i, qolqonsimon bezi, jinsiy bezlar gormonlari sintezlari optimallasadi.

Yuqoridagi muallajalar shakar diabeti bilan kasal bo'lgan odamning ishlash qobiliyati, ahvolini yaxshilaydi.

Ibn Sino o'z asarlarida yer nokini yurak kasali, semirganda, qariganda va diabetda qo'llagani ma'lum.

Bir kunlik kaliy-magniy miqdori topinambur dozasida ma'lum kimyoviy preparatlar orqali gipertonik va yurak kasallari dorisi panangin va asparkam

o'rnini bosishi mumkin. Magniyga qaraganda u topinamburda yuqoridagi dorilardan 2 marta ko'pdir. Topinamburdagi magniy va kaliy birikmalari aritmiya, gipertoniya, yurak ishemik kasali, stenokardiya, infarkt va insult kasallarida qo'llanilishi zararsizdir.

Antibiotiklar va shishga qarshi sitostatik moddalar qo'llanilgan magniy organizmdan ko'proq chiqib ketadi, buyrak kanallari zararlanadi, pastki chiqish organlarining enarteriitiga sababchi bo'ladi, karonar arteriyalar qisilishi (spazma) miokard ishimiyaga olib keladi, kardiopatiya, aritmiya, o'limga borishi mumkin. Shu sababli oldindan topinambur qo'llanilsa buyrak kanallar qo'riqlanadi.

Ko'pgina kasallarga sabab yurak uchun bu yog' almashinishi buzilishidir (ya'ni xolesterin va triglisiridlar qonda oshadi) tomirlarni aterosklerozga sababchi bo'ladi.

Kerakli faol mikroflora (bifido- va laktobakteriyalar) topinambur yordamida qonda xolesterin miqdorini kamaytiradi, arterial bosimni normallashtiradi. Agar topinambur (20-30 kun) qabul qilinsa "maksimal va minimal" arterial bosimlar o'zgarar ekan.

Inulin insulinning funksional faolligini qaytaradi va hamma turdagi almashinishni mo'tadillashtiradi.

Yer nok ta'sirida qonning qovushqoqligi kamayadi bunga fibrinogenoid plazmada konsentrasiyasi kamayishi sababdir, qon oqishi yaxshilanadi, tomir devori elastikligi oshadi, eritrositlar trombositlar, leykositlar plastik xossalari yaxshilanadi. Qon xujayraldari o'z shaklini tez o'zgartira oladi va tomir diametriga moslashib undan o'tib ketadi. Shu hisobida mikrosirkulyasiya ko'rsatkichlari yaxshilanadi, qon oqishi yuqorilashadi, to'yimli moddalar yetkazish yengillashadi, kislorod ham organizm to'qimalarigacha yetkaziladi, hamda xujayradagi hosil bo'lgan moddalar ajratib olinadi, u esa hamma organlar faoliyatini yanada yaxshilaydi. Ko'pgina yurak-tomir sistemasi kasalligi davomida qon yumoloqlanishi va tromb hosil bo'lishiga moyillik kattadir.

Tromblar aterosklerotik blyashkalar hosil bo'lganda, infarkt miokarda va tomir venalarining varikoz kengayishida hosil bo'ladi. Tomirning murakkab patologik qaysiki insult, tromboemboliya (ajralgan trombni qon tashishi) o'pka arteriyasi va boshqa organ kasallari qonning yuqori yumshoqlanishi va reologik xossalarini buzilishidandir. Novosibirsk olimlari ko'rsatishicha topinambur yordamida tromb hosil bo'lishi qonda kamaytirilgan, tomir devorlari harakteristikasi yaxshilangan. Agar qon yumshoqlanishi past bo'lsa, qon oqishi tez bo'lsa ularga topinambur kichik daqiqalarda (7-10 kun) va kichik dozalarda, ayrim dorivor dozalar bilan solishtirilganda 2 marta kamroq beriladi.

Kremniy miqdori aniq pog'onada bo'lsa arteriya devorlari elastikligini yuqori qiladi va o'tkazuvchanligini kamaytiradi. Inulin, ichak-qorin traktidan o'tib xolesterin kristallarini ushlab oladi, qattiq lipoproteinlarni ham ushlaydi, gipogletkemiyanı ozaytiradi.

Ichakda yopishib qolgan fruktoza zanjirlari tozalash funksiyasini bajaradi. Topinambur tarkibida inulin va pektin moddalarni ko'p tutgani, ularning kompleks hosil qilishga asoslanib yomon ekologiyaning ta'sirini yo'qotadi, organizmdan og'ir metallar, radionukleid va pestisidlarni chiqarib yuboradi.

Miokard holatda selen darajasi katta ahamiyatga ega.

Yurak faoliyatida topinambur selenni oziq-ovqatdan ajratib unga yordam beradi.

Foydali maslahatlar, tajribalar axboroti

Topinambur ildizpoyasi tuganaklari odamlarga ozuqa, hayvonlarga yem, texnik qayta ishlaganda spirt va fruktoza olishda qo'llaniladi. Bargi va poyasi yaxshi siloslanadi. Tuganaklari hom hamda issiqda dog'lab yeuladi. Qovurilgan topinambur ta'mi kartoshkanikiga o'xshashdir. Muzlatilgan topinambur tuganaklari inulinning gidrolitik fruktozaga aylanganligi sababli shirin ta'mga ega bo'ladi. Poyalarini presslab shirin sharbat(sok) olinadi uni patokaga aylantirish mumkin. Asalarilar ham ko'zgi gullashi sifatida unu yoqtiradi. Agar tuganaklardan 4-5 kg kunda qaynatilgan tuganaklari berilsa

cho'chqalarda sutini ko'paytiradi, mollarda sut miqdori oshib yog'lar miqdori ham ko'payadi. Tovuqlarga berganda tuxum berishi 2-3 hafta oldin boshlanadi va soni ham, oshadi. Bahordagi yer nok bilan echki, qo'y, tovushqonlarga berish yaxsgidir. AQSH larda undan diyetik kofe tayyorlanadi.

Qozog'istonda gepertoniya, qand kasali va tuz to'planish bilan og'rigan kishi topinamburdan varenye, dudlab, keyin salat qilib istemol qilgan. Shox va barglaridan choy damlab ichgan. Qon bosimi normallashtgan, qand miqdori 7 dan lga pasaygan shox va barglardan 5 ta vanna qabul qilganda og'riqlar yo'qolgan, 3 qavatga qiynalmasdan chiqar ekan. Yana bir kishi topinambur istemol qilib falaj kasalidan davolanibdi. Organizmdan tuzlarni chiqarishda 5 kg ko'k massasini 5-10 sm bo'lakchalarga bo'lib, 5-8 litrlik bankalarga solib 20-25 minut qaynatiladi, keyin qaynatmani dokadan o'tkaziladi, tog'ora yoki bochkaga qaynoq suvga 1:5, 1:7 ko'k massa quyiladi. 1-1,5 minutlik vannadan so'ng, sovunda yuuviriladi. Vanna o'rniga tog'orada qo'l, oyoqlarni bug'lash mumkin. Ko'k massaga o'xshab lkg xom mevalarni avval yuvib maydalab keyin foydalanish mumkin. 300-400g quritilgan shox va barglarini 40-45 minut qaynatib dokadan o'tkaziladi, to'q jigarrang eritmada foydalaning. 100-150g quritilgan mevasini 40-45 minut qaynatib, dokadan o'tkazib vannada qabul qilish mumkin. Kunda, yoki 1-2 kunda vanna qabul qilinadi. 3-5 martadan keyin, ko'proq 20-40 martadan keyin yengilik seziladi. Lekin 20 vannadan keyin 15-20 kun dam olish kerak.

Insult, gipertoniya, qandli diabetni davolashda mevalar va yosh shoxchalarini tozalab yuvib va mayda to'rg'ab o'simlik yog'idan quyib salat tayyorlash, salatga qo'shib istemol qilinadi. Xom yoki quritilgan mevalarni kompot qilib har kuni 1 litr 2-3 marta ichish lozim. 2 ta xom mevani 1-2 litr suvga solib 10-15 minut, 2 qoshiq quritilganini 1-2 litr suvga solib 1 soat qaynatiladi. damlamaga o'xshab ichiladi. Agar qand diabeti kasalingiz bo'lmasa bu damlamaga shakar qo'shib ichsangiz oshqozon osti beziga tasir qiladi va gemoglabinni ko'paytiradi.

